



O‘ZBEK PEDAGOGIKASI TARIXINI DAVRLASHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Salayeva M.S.

*Urganch davlat universiteti,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Tayanch so‘zlar: pedagogika tarixi, yangi pedagogik paradigma, davrlashtirish strategik rivojlantirish, milliy-ma'naviy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, jahon pedagogikasi, metodologik asos, takomillashtirish, nazariy asoslar.

Ключевые слова: история педагогики, новая педагогическая парадигма, периодизация стратегического развития, национально-духовные ценности, общечеловеческие ценности, мировая педагогика, методологическая основа, совершенствование, теоретические основы.

Key words: history of pedagogy, new pedagogical paradigm, periodization of strategic development, national and spiritual values, universal human values, world pedagogy, methodological basis, improvement, theoretical foundations.

Butun dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda sharqona ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik mohiyatini, uning ma'rifiy-madaniy rolini va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga e'tibor qaratilmoqda. Jahonda pedagogika tarixini yangi pedagogik paradigmalar asosida davrlashtirish pedagogika tarixining taraqqiyotini strategik rivojlantirish yo'llarini belgilash, milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatini yuksaltirish, jahon pedagogikasi tarixining metodologik asoslarini takomillashtirishga doir nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbek pedagogikasi tarixining jahondagi boshqa xalqlar pedagogikasiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganish, milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatini anglash, pedagogikaga oid bilimlarning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'sirini tasavvur qilishlari uchun imkoniyat yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatini anglab yetishlarida



pedagogika tarixini davrlashtirishni yangi nazariy-metodologik tamoyillar asosida o'rganish va taraqqiyot yo'lini aniqlashtirish muxim omil sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirish asosida xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosidan ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish hamda me'yoriy-uslubiy ta'minotini kengaytirishga zamin yaratadi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning sifatini va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish pedagogika tarixiga oid manbalardan unumli foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda, Avesto, Qur'oni Karim, Xadislari singari milliy-ma'naviy meroslarimizning mazmun va mohiyatini to'g'ri talqin qilish, ularda ifodalangan g'oyalarni kelajak avlod ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmonida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlari” ning 42-bandida “Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish” [3.]ga qaratilgan ustuvor vazifani ado etish natijasida o‘zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy metodologik asoslarini takomillashtirishga yanada kengroq imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni [1.], 2017-yil 27-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2855-son qarori [2.], 2017-yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2995-son qarori [4.] hamda 2017-yil 23-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3080-son qarori [3.], «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasi» 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori [5.], ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi O‘zbekistonda «Islom madaniyati markazini tashkil etish haqida»gi Qarorida quyidalar alohida belgilab qo‘yilgan:

– islom dini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg‘oniy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug‘ insoniy fazilatlarini keng targ‘ib qilish;

– jahon ilm-fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari mumtoz adabiyot va san‘at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish;

– islom dini odamlarni, barcha millat va xalqlarni hamisha nurli hayotga, ezgulik, o‘zaro do‘stlik va insoniylikka da'vat etishini, uning asl, gumanistik mazmunini teran tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017-yil 27-martdagi PK-2855-son qarori [2] asosidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-iyuldagi 483-son Qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi to‘g‘risida»gi Nizomda:

– hadis ilmining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan vatandoshimiz Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o‘rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– islom sivilizatsiyasining umuminsoniy qadriyatlarini, jumladan xalqimiz ma'naviyati va madaniyati rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rgatish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;

– jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayonida dunyoda, mintaqa va mamlakatimiz hayotida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, uning



ma'rifiy-madaniy rolini va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish;

– islom diniga oid ilmiy, tarixiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy meros salohiyatini, shu jumladan qo'lyozmalar va arxiv fondlarida saqlanayotgan manbalarni hisobga olgan holda, chuqur o'rganish va tadqiqot natijalari yuzasidan qomuslar, kataloglar, albomlar, ilmiy-ommabop hujjatli filmlar, axborot-resurs bazasini tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida, xususan Internetda e'lon qilishni tashkil etish;

– «Jaholatga qarshi – ma'rifat» g'oyasi asosida islom diniga nisbatan sodir etilayotgan asossiz xurujlarning oldini olish, shuningdek diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm, missionerlik, soxta tariqatlar va jamoalarning maqsadlari, g'oyaviy-aqidaviy negizlari, zamonaviy ko'rinishlari va faoliyat usullarini o'rganish va ularga qarshi kurashning ilmiy-ma'rifiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etish nazarda tutilgan.

Ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy, ilmiy ma'rifiy madaniy merosni har tomonlama o'rganish va tadqiq qilish tariximizning haqqoniy manzarasini ochishda alohida ahamiyatga ega. Chunki, qadim-qadim zamonlardan boshlab ajdodlarimiz o'zlarining aql-zakovatlari mahsuli sifatida boy ilmiy, ma'rifiy, madaniy-ahloqiy meros qoldirganlar. Ushbu merosni har tomonlama tahlil va tadqiq qilish jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuvning paydo bo'lishi va muntazam takomillashuvi jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni to'plash, saqlash, o'zaro uzatish, kelgusi avlodlarga qoldirish zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Yozuv paydo bo'lish barobarida pedagogik fikrlarni turli vositalar, tosh bitiklar, teri va asta sekin qog'ozlarga yozib qo'yish sohasidagi ishlar rivojlandi. Huddi mana shu manbalar yordamida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan dastlabki pedagogik g'oyalar keyingi avlodlarga yetkazilgan.

Pedagogik fikrlarni yozish, tarqatish yozuv yordamida amalga oshirilgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik bilimlar avlodlardan avlodlarga yozuv yordamida yetib kelgan. Chunki haqiqiy ma'nodagi yozuv dastlab Qadimgi Sharqda vujudga kelib, uni bizning ajdodlarimiz kashf etgan.

O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalangan holda ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini yozib qoldirgan. Ushbu



manbalar Avesto, pahlaviy, Urxun-Enisey (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Dastlabki pedagogik fikrlar adabiy-madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Xalqimizning ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan nihoyatda qadimiy va boy pedagogik fikrlari adabiy-madaniy merosda o'z ifodasini topgan. U o'zbek xalqining urf-odatlari, rasm-rusmlari, bayramlari, qadimiy bitiklar va arxeologik topilmalar, xalq og'zaki ijodi namunalari, yozma badiiy adabiyot va fan sohasida yaratilgan noyob asarlar, tasviriy va amaliy san'at hamda musiqa durdonalari, betakror me'moriy obidalardan iborat.

O'zbek xalqining boy adabiy-madaniy merosi yozma tarix boshlangandan keyin axomaniylar (miloddan avvalgi 558 - 330), salavkiylar (miloddan avvalgi 312- 64), Avesto, Urxun-Enisey tosh bitiklari, turkiy (uyg'ur) qo'lyozma yodgorliklar. Turk xoqonligi (552-745), Arab xalifaligi (632-1258) va keyingi davrlar, xususan Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, uch xonlik, Rossiya istilosi, sho'rolar tuzumi davrlarida va nihoyat, mustaqillik yillarida bunyod etilgan og'zaki, yozma va moddiy yodnoma hamda yodgorliklardan iborat.

Xulosa o'rnida ta'kidlab aytish joizki, o'zbek xalqining urf-odatlari, rasm-rusmlari, bayramlari, xalq ijodi namunalari, pedagogika sohasida yaratilgan manbalarda o'z ifodasini topgan. Adabiy-madaniy pedagogik merosni o'rganish va ommalashtirish ham tarixiy, ham ma'rifiy qimmatga ega. O'zbek xalqining adabiy-madaniy merosi birinchi navbatda bitmas-tuganmas aqliy-ma'naviy tarbiya, pedagogik fikr manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham uni izchil tizim asosida yosh avlod ongiga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Adabiy-madaniy meros o'zbek xalqi tarixi bilan izchil va mustahkam bog'langan bo'lib, xalqimizning qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma'naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o'z ichiga olganligi ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6600413>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 - yil 27 - martdagi PQ-2855-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 85 son. 28-mart.1-2-bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi O'zbekistonda «Islom madaniyati markazini tashkil etish haqida»gi PQ-3080 sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017-yil. № 125-son.24-iyun.1-2-bet.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2995 - sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017-yil. № 103-son.2- may.1-2-bet.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasi»ni tasdiqlash to'g'risida»gi 2018-yil 28-noyabrdagi PQ - 4038-sonli qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T. O'zbekiston NMIU, 2016. - 56 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-ictisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. -T. O'zbekiston. NMIU, 2017. - 104 b.

8. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik.: "Nodirabegim" nashriyoti, – Toshkent 2021. – 598 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada pedagogika tarixini yangi pedagogik paradigmalarda davrlashtirish uchun pedagogika tarixining taraqqiyotini strategik rivojlantirish yo'llarini belgilash, milliy-ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyatini yuksaltirish, jahon pedagogikasi tarixining metodologik asoslarini takomillashtirishga doir nazariy fikrlar asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье теоретические идеи основаны на определении путей стратегического развития истории педагогики с целью периодизации истории педагогики на основе новых педагогических парадигм, повышения общечеловеческой значимости национальных и духовных ценностей, совершенствования методической основы истории мировой педагогики.

SUMMARY

In this article, theoretical ideas are based on defining the paths of strategic development of the history of pedagogy with the aim of periodizing the history of pedagogy based on new pedagogical paradigms, increasing the universal significance of national and spiritual values, and improving the methodological basis of the history of world pedagogy.